

FOLKLOR AN'ANALARI ASOSIDA YARATILGAN STSENOGRAFIYA ASARLARINING BADIY BEZAKLI YECHIMI



Rustamova Zulfiya Furqat qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti,

Teatr bezagi mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18785602>

Anotatsiya. Mazkur maqolada folklor an'analari asosida yaratilgan stsenografiya asarlarining badiiy bezakli yechimlari tahlil qilinadi. Unda xalq og'zaki ijodidagi ramzlar, bezaklar, ranglar uyg'unligi va ularning sahna makonini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar zamonaviy sahna dizayniga qanday singdirilishi, dekor elementlarining semantik mazmuni va kompozitsion o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot stsenografiyada folklorning o'rni, milliylikni ifodalashning badiiy yo'llari hamda tomoshabin idrokiga ta'sir etuvchi estetik omillarni aniqlashga qaratilgan. Maqola natijalari sahna san'ati, teatr dizayni va madaniy merosni saqlash bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: milliylik, estetik did, stsenografiya, folklore an'analari, ruh, sahna dizayni, ramzlar, dekoratsiya, portal.

Аннотация. В данной статье анализируются художественно-декоративные решения сценографических произведений, созданных на основе фольклорных традиций. Рассматриваются символы, орнаменты и цветовая гармония народного устного творчества, а также их значение в формировании сценического пространства. Кроме того, исследуется процесс интеграции национальных ценностей в современный сценический дизайн, семантическое содержание декоративных элементов и их композиционная роль с научной точки зрения. Цель исследования заключается в выявлении роли фольклора в сценографии, художественных способов выражения национальной идентичности, а также эстетических факторов, влияющих на восприятие зрителя. Результаты статьи имеют практическое значение для специалистов в области сценического искусства, театрального дизайна и сохранения культурного наследия.

Ключевые слова: национальная идентичность, эстетическое восприятие, сценография, фольклорные традиции, духовность, сценический дизайн, символы, декорация, театральный портал.

Abstract. This article analyzes the artistic and decorative solutions of scenographic works created on the basis of folklore traditions. It examines the symbols, ornaments, and color harmony found in folk oral literature and highlights their significance in shaping stage space. The study also explores how national values are incorporated into contemporary stage design, as well as the semantic meaning and compositional role of decorative elements from a scholarly perspective. The research aims to identify the role of folklore in scenography, the artistic approaches to expressing national identity, and the aesthetic factors that influence audience perception. The

findings of the article have practical significance for specialists engaged in stage arts, theatre design, and the preservation of cultural heritage.

Keywords: national identity, aesthetic perception, scenography, folklore traditions, spirituality, stage design, symbols, decoration, stage portal.

O'zbekiston sahna san'ati taraqqiyoti jarayonida milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, urf-odat va an'analarning badiiy talqini alohida o'rin tutadi [1]. Ayniqsa, stsenografiya sohasida folklor motivlari, milliy bezaklar, ramzlar va amaliy san'at namunalari sahna ko'rinishlarining estetik mazmunini boyitib, tomoshabin ongida milliy identifikatsiyani kuchaytiradi [3;5]. Folklorga asoslangan sahna bezaklari faqat dekoratsiya emas, balki asar mazmunining badiiy talqinini ochib beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi [7].

Zamonaviy stsenografiya texnik va kompozitsion imkoniyatlar bilan kengayib borayotgan bo'lsada, unda milliy meros unsurlarining uyg'un qo'llanishi san'atkor oldida ijodiy mas'uliyatni talab qiladi [3; 7]. Folklor nafaqat tarixiy xotira, balki xalqning dunyoqarashi, ruhiyati va estetik didini aks ettiruvchi bebaho manbadir [1; 6]. Shu bois sahna dizayni yaratishda folklor bezaklari, milliy naqshlar, ranglar tizimi va ramzlar semantikasini chuqur tushunish zarur [5].

Ushbu maqolada folklor an'analari asosida yaratilgan stsenografiya asarlarining badiiy bezakli yechimlari, ularning kompozitsion qurilishi, semantik mazmuni hamda tomoshabin idrokiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi [3]. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, stsenografiyada milliylilikni ifodalash bugungi teatr jarayonida muhim mavzulardan biri bo'lib, u san'at va madaniyatning barqaror rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbek xalq og'zaki ijodi — folklor, asrlar davomida milliy ruhni, estetik qarashlarni, marosim va qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi [6]. Folklor — xalqning ruhiy olami, ma'naviy boyligi, dunyoqarashi va tarixiy xotirasining eng muhim tashuvchisidir. U dostonlar, ertaklar, askiyalar, qo'shiqlar, marosimlar, udumlar, naqshlar, amaliy san'at unsurlarida o'z ifodasini topadi. Shu bois folklor san'atning barcha yo'nalishlarida, xususan, teatr stsenografiyasida betakror ilhom manbai hisoblanadi [3; 6].

Folklor – xalqning asrlar davomida shakllangan og'zaki ijodi, urf-odatlari, marosimlari, timsollari va badiiy dunyoqarashining mujassam timsolidir [6]. San'atning ko'plab yo'nalishlarida bo'lganidek, stsenografiyada ham folklor beqiyos ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi [3]. Stsenografiya – sahna asarining badiiy yechimi, ya'ni dekoratsiya, rekvizit, sahna makoni, rang va yorug'lik uyg'unligi orqali mazmunni tomoshabinga yetkazish san'atidir [7]. Folklor asosidagi stsenografiya esa sahnaviy tasvirda milliy ruhni yaratish, xalqona timsollarni badiiy talqin qilish va tomoshabinda tarixiy-madaniy xotirani uyg'otish imkonini beradi [1; 6].

Folklor tushunchasi va uning estetik xususiyatlari haqida gapirsak, folklor (inglizchadan folk – „xalq“, lore – „bilim“, „donolik“) – xalq ijodini ifodalovchi termin bo'lib, ma'lum bir guruh xalqlar, madaniyat yoki submadaniyat uchun umumiy bo'lgan madaniyat majmuasini anglatadi [6]. Unga xalq og'zaki ijodi an'analari, masalan, rivoyatlar, miflar, afsonalar, maqollar, she'rlar, latifalar va boshqalar kiradi. Bu atamani fanga 1846-yilda ingliz arxeologi William Thoms olib kirgan. 1880—1990-yillarda „folklor“ termini ko'plab mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo'llana boshlagan.

Folklori akademik o'rganish folklorshunoslik deb ataladi va u turli ilmiy bosqichlarda tadqiq etiladi. O'zbekistonda dastlab „og'zaki adabiyot“, „og'iz adabiyoti“ atamallari qo'llangan bo'lsa, „folklor“ termini XX asrning 30-yillaridan keng iste'molga kirgan [1]. 1939-yilda Hodi Zarifning „O'zbek folklori“ xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligida mustahkam o'rin oldi.

Folklor — xalq ijodining ogʻzaki shakllari majmui boʻlib, ular har bir avlod tomonidan takomillashtirilib, keyingi avlodga yetkazib kelingan. Uning asosiy xususiyatlari jamoaviylik, anʻanaviylik, obrazlilik, hayotiylik, ramziy maʼnolarning koʻpligi hamda estetik umumlashmalar bilan belgilanadi [6].

Folklorida shakllangan obrazlar badiiy stsenografiyaning asosiy ilhom manbasi boʻlib xizmat qiladi [6]. Ayniqsa, xalqona naqshlar, ranglar, tabiat obrazlari va marosim belgilarida milliy estetika chuqur aks etgan [2; 5]. Folklorning tasviriy sanʼatga oid xususiyatlari — sodda, lekin mazmunli ornamentlar; tabiatga yaqin ranglar va ritmlar; takrorlanuvchi naqshlar orqali tartib va uygʻunlik yaratish; ramzlarning keng qoʻllanishi bilan tavsiflanadi [2].

Folklor va stsenografiya oʻrtasidagi badiiy aloqadorlik muhim estetik tamoyil sifatida namoyon boʻladi [3]. Folklor obrazlari — bahodirlar, pari va devlar, ertak qahramonlari, maqollar va afsonalarda uchraydigan ramziy timsollar stsenografiyada kompozitsion hamda obrazli yechimning asosiga aylanishi mumkin [6; 7]. Masalan, oʻzbek xalq ertaklaridagi makon tasvirlari — sehrli bogʻ, togʻ-toshlardagi qoya tasvirlari, qadimiy saroylar yoki oddiy xalq uy-joyi sahna qiyofasini shakllantirishda asosiy vizual kontent sifatida qoʻllanadi [3].

Stsenografiya sanʼati va uning badiiy yechimi. Stsenografiya — teatr spektakli uchun sahna bezaklarini loyihalash, kompozitsion makon yaratish va tomoshabinga estetik hamda ruhiy taʼsir koʻrsatish sanʼatidir [3; 7]. Folklor asosida yaratilgan stsenografiya esa mazmunan yanada boy, ramziy maʼnolarga ega boʻladi, chunki xalqlarning asrlar davomida shakllangan tasavvurlari, timsollari va estetik ideallari sahna orqali jonlanadi [6].

Ssenografiya sanʼati teatrning sintetik tabiatiga mansub boʻlib, unda rassom faoliyati spektaklning sahnaviy voqeligiga boʻysundirilgan holda, tasviriy vositalar orqali tomoshabinga taʼsir etuvchi badiiy obrazlar yaratishga qaratiladi [7]. Teatr dekoratsiyasi sanʼati tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan bezash sistemalari prinsiplari hamda tasvirlash usul va vositalariga tayangan holda, ijtimoiy hayotdagi oʻzgarishlarni badiiy-estetik obrazlar orqali aks ettiradi [3].

Teatr sanʼati va sahnaviy muhit yaratish faoliyati qadim davrlarga borib taqaladi. Tadqiqotchilar uning ildizlarini xalq bayramlari va marosimiy oʻyinlarda koʻradilar [6]. Marosimiy tomoshalar qadim zamonlarda yuzaga kelib, mehnat, maishiy hayot, quvonch va qaygʻularni poetik tasvirlash xususiyatiga ega boʻlgan. Ular insonning tabiat bilan munosabati, iymon-eʼtiqodi va maʼnaviy dunyosini ifodalovchi estetik shakl sifatida namoyon boʻlgan [6; 1].

Stsenografiyaning vazifalari quyidagilardan iborat: spektakl mazmunini sahnaviy obrazlar orqali ochish, vaqt va makonni yaqqol ifodalash, tomoshabin his-tuygʻularini uygʻotish hamda voqealar oqimini badiiy tasvirlash [3; 7].

Badiiy bezak yechimi — bu sahna uchun tanlangan barcha unsurlar: rang, forma, yorugʻlik, faktura, naqsh va harakatning yagona kompozitsion maqsadga xizmat qilishi demakdir [7]. Folklor asosidagi bezak yechimlarining oʻziga xos tomonlari:

- milliy naqshlarning qoʻllanilishi;
- anʻanaviy ranglarning ustuvorligi;
- tabiat timsollarining sahnaga olib chiqilishi hamda xalq amaliy sanʼati unsurlarining dekor sifatida ishlatilishi bilan belgilanadi [2; 5].

Folklor asosidagi stsenografiya rang tanlovida ham oʻziga xoslikni namoyon etadi. Oʻzbek miniatyuralarida uchraydigan moviy, oltinrang, qizil va yashil tuslar xalq badiiy didida muhim oʻrin tutadi [2]. Ushbu rang uygʻunliklari stsenografiyada qoʻllanganda tomoshabinda milliy ruh uygʻonadi [5]. Doʻppi naqshlari, zardoʻzlik, ganch va yogʻoch oʻymakorligi, keramik buyumlar,

atlas-adras matolari stsenografiyaning dekorativ elementlari sifatida stilizatsiya qilingan shaklda qo'llanadi [2; 5].

Folklor timsollarining har biri o'ziga xos ramziy ma'noga ega: quyosh – hayot va baraka, suv – poklik va yaratuvchanlik, archa – barqarorlik va abadiylik, qush – erkinlik va ezgulik kabi semantik yuklamalarni ifodalaydi [6].

Stsenografiya ushbu ramzlarni dekoratsiyalar fonida yoki yorug'lik effektlari orqali jonlantiradi, shu tariqa sahna makoniga semantik chuqurlik beradi [3; 7]. Milliy naqshlardan foydalanish stsenografiyaning muhim estetik tamoyillaridan biridir. O'zbek amaliy san'ati girih, islamiy, geometrik va suzani naqshlari bilan nihoyatda boy bo'lib, ular dekorativ panellarda, fon pardalarida, kostyumlarda hamda sahna polida keng qo'llanadi [2]. Ranglar xalqona timsollarda muhim semantik ahamiyat kasb etadi: qizil – hayotiylik, ko'k – osmon va ruhiy poklik, yashil – yangilanish, oq – poklik, sariq – nur va baraka ramzi sifatida talqin qilinadi [5]. Folklor sahna ko'rinishlarida rang uyg'unligi mazmunni chuqurlashtiruvchi kuchli badiiy vosita hisoblanadi [2; 5]. An'anaviy ashyolar — yog'och o'ymakorligi, matodan tikilgan panellar, sopol buyumlar va to'qima mahsulotlar — stsenografiyada milliy muhit yaratishga xizmat qiladi [2]. Folklor asosidagi stsenografiya ko'pincha mistik, marosimiy yoki mifologik makonlarni aks ettirib, sahnada ramziy-estetik muhitni shakllantiradi [6].

Dostonlarga asoslangan stsenografiya o'zbek va turkiy epik merosini sahna makonida vizual talqin etish imkonini beradi. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustam", "Bahrom va Gulandom" kabi eposlar sahnaviy talqinda epik kenglik, baland ruh va yorqin ranglar orqali ifodalanadi [9]. Masalan, "Alpomish" spektaklida keng dasht manzarasi, oq chodir va alp o'g'lon timsoliga mos badiiy yechimlar qo'llanadi; "Zumrad va Qimmat" talqinida esa sehrli o'rmon, podsho saroyi hamda xalqona uy-joy detallari orqali ertaknamo makon yaratiladi [6; 9].

Navro'z marosimlari aks etgan tomoshalarda somoviy ranglar, ko'klam ramzlari, qushlar va gulchambarlar sahnaviy kompozitsiyaning asosiy elementlariga aylanadi [2; 5]. Marosim asosidagi stsenografiyalarda — Navro'z, kelin salom, sumalak sayli kabi tomoshalarda — xalqona kiyimlar, hunarmandchilik buyumlari va milliy musiqa uyg'unligi milliy muhitni kuchaytiradi [8].

Amaliy san'at bilan uyg'unlashgan stsenografiyada kulolchilik, kashtachilik va zargarlik unsurlari dekor sifatida qo'llanib, milliylikni yanada yaqqol namoyon etadi [2]. Folklor bezaklari geometrik, o'simliksimon (islamiy) hamda kosmik-tabiiy ramzlar tizimiga bo'linadi: bodom, g'unchalar, qush qanoti, arslon, ilon, baliq; quyosh, oy, suv, olov, daraxt kabi timsollar ramziy ma'no tashuvchisi sifatida xizmat qiladi [6; 5].

Folklorga xos kompozitsiya odatda markaziy asosiy naqsh, yon panellar va osma elementlar tizimida quriladi [2]. Aylana shakli esa xalq marosimlarining asosiy kompozitsion elementi bo'lib, hayot aylanishi g'oyasini ifodalaydi [6]. Yorug'lik folklor spektakllarida ko'pincha iliq va tabiiy tuslarda qo'llanib, epik va marosimiy muhitni kuchaytiradi [3; 7].

"Alpomish" dostoni sahna talqinlarida dekoratsiya dostonning epik ruhi, xalqona estetika va milliy ramzlarni ifodalashga xizmat qiladi [9]. 1990–2000 yillardagi sahnalashtirishlarda monumental va realistik sahna dizayni ustuvor bo'lib, yog'och konstruksiyalar yordamida qadimiy qal'a, karvon yo'llari va qishloq hovlisi tasvirlangan. Fonlarda tog' va sahro manzaralari, sahna bo'linmalarida atlas, adras, suzani va gilamlar qo'llanib, epik makon yaratishga erishilgan [2; 9].

O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi — ertaklar, dostonlar, rivoyatlar va afsonalar milliy teatr san'atining asosiy manbalaridan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda [6; 9]. Ayniqsa, xalq qahramonlik dostonlari — "Alpomish", "Kuntu'gmish", "Rustambek", hamda qoraqalpoq xalqining mashhur eposi "Qirq qiz" — teatr sahnasida milliy g'urur, jasorat va ezgulik timsoli sifatida talqin etiladi [8; 9; 10]. Ushbu asarlarning sahnaviy yechimida dekoratsiya, rangtasvir,

kostyum va butun sahna bezagi orqali xalqning estetik dunyoqarashi, milliy qadriyatlari hamda ma'naviy merosi ifodalanadi [3; 5]. Folklor asarlarida mavjud bo'lgan obrazlar, syujetlar, timsollar va ramzlar sahna san'atining boy vizual manbai hisoblanadi [6]. Teatrda ushbu manbalarni qayta talqin etish jarayonida stsenograf rassomlar xalq hayoti, madaniyati va estetik qarashlariga tayanadilar [3]. Ular sahnani bezashda tarixiy davr ruhini aks ettirish bilan birga, milliy ruhni uyg'otuvchi ranglar, naqsh va shakllardan keng foydalanadilar [2; 5]. Masalan, "Alpomish" spektaklida sahna kompozitsiyasi o'zbek xalqining qadimiy turmush tarzini, dasht manzaralari va yurt himoyachiligi g'oyasini ifodalaydi [9]. Dekoratsiyada gumbazsimon o'tovlar, kamalak tusidagi gilamlar, temirchilik buyumlari, ot ulovlari, jang maydoni va qurollar tasviri qo'llanib, tomoshabinni epik makonga olib kiruvchi ramziy vositalar sifatida xizmat qiladi [6].

O'zbekiston Milliy akademik drama teatri, Buxoro viloyat musiqali teatri hamda Qashqadaryo viloyat teatri sahna sahnalashtirilgan "Alpomish" spektakllarida stsenografiya dostonning epik ohangi, dramatik kuchi va qahramonlik ruhini badiiy vositalar orqali ifodalaydi [9]. Sahna bezaklarida tabiat manzaralari (dasht, tog', daryo), milliy ornamentlar (islamiy naqshlar, gilam bezaklari), temirchilik va otchilik atributlari (nayza, qalqon, kamon, egarlik) keng qo'llanadi [2; 9].

Rang uyg'unligida oltin, ko'k va qizil tuslarning ustuvorligi xalq ruhiyatidagi jasorat va muhabbat timsolini ifodalashga xizmat qiladi [5]. Shuningdek, sahna dinamikasida yorug'lik yechimi muhim rol o'ynaydi: jang sahnalarida qizil rangli yorug'lik, lirika va muhabbat sahnalarida esa yumshoq oq-ko'k soyalardan foydalaniladi, bu esa dramatik holatlarni kuchaytirib, tomoshabinning hissiy tajribasini boyitadi [3; 7]. "Kuntu'gmish" va "Rustambek" dostonlari asosidagi teatr sahnalarida insonparvarlik, sadoqat, muhabbat va adolat g'oyalari yetakchi motiv sifatida namoyon bo'ladi [9]. Ularning sahnaviy talqinida dekoratsiya ko'hna Sharq saroylari, afsonaviy bog'-rog'lar va ma'naviy sinov makonlarini tasvirlash orqali epik muhit yaratadi [3]. Masalan, "Kuntu'gmish" spektaklida ko'p qirrali naqshli pardalar va Sharq miniatyura rangtasviri uslubida ishlangan devor pannolari qo'llanib, tomoshabinni afsonaviy olamga olib kiruvchi estetik muhit yaratiladi [2]. "Rustambek" sahnalarida esa qahramonlik va ezgulikning yovuzlikka qarshi kurash motivi markaziy o'rin egallagani sababli, sahna yechimi jang maydoni, tog' manzaralari hamda yorqin va qorong'u kontrastlar orqali ifodalanadi [6; 9]. Stsenografiyada metallik materiallar, ko'k va kumush ranglar, geometrik shaklli dekor elementlari qo'llanib, kuch, iroda va qat'iyat ramzi sifatida talqin etiladi [5]. Ushbu vositalar spektaklning dramatik kuchini oshirib, obrazli kompozitsiyani mustahkamlaydi [3].

"Qirq qiz" eposi asosidagi spektakl dekoratsiyasi qoraqalpoq xalqining ayol jasorati, vatanparvarlik va or-nomus timsolini sahnaviy talqin etadi [8; 10]. Ushbu epos asosida yaratilgan spektakllar — Qoraqalpog'iston davlat musiqali teatri, O'zbekiston Yosh tomoshabinlar teatri va boshqa sahnalarda o'ziga xos badiiy bezak hamda milliy kompozitsion yechim bilan namoyon bo'lgan [8]. Zamonaviy stsenografiya sahna uchun makon yaratishda nafaqat dekorativ elementlarni, balki g'oya, ramz va milliylikni badiiy talqin qilishni ham o'z ichiga oladi [3; 7]. Shu jarayonda folklor — xalq og'zaki ijodi, qadimiy naqshlar, urf-odatlar va mifologik obrazlar — stsenografiyada boy ilhom manbai sifatida qo'llanadi [6].

Bugungi sahna san'atida folklor bir necha yo'nalishlarda talqin qilinadi: milliy naqsh va ornamentlar asosida dekor yaratish; mifologik obrazlarni zamonaviy yoritish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish; qadriyat va urf-odatlarini sahna ko'rinishlari orqali aks ettirish; musiqa, marosimlar hamda xalq kiyimlari elementlarini zamonaviy estetika bilan birlashtirish [2; 5]. Ushbu jarayon stsenografiyani yanada mazmunli, milliy ruhga boy va tomoshabinga yaqin qiladi [3].

Xulosa. Folklor asosidagi dekor yaratishda yoritish tizimlari orqali milliy naqshlar devor va poldagi soyalar vositasida aks ettiriladi, to'qimachilik elementlari (atlas, shoyi, gilam) sahna fonida milliylikni ta'minlaydi, yog'och o'ymakorligi esa tabiiy makon hissini shakllantiradi [2]. Zamonaviy rejissyor va stsenograf rassomlar folklor elementlarini to'g'ridan-to'g'ri nusxa sifatida emas, balki badiiy qayta ishlangan va ramziy shaklga keltirilgan talqin ko'rinishida qo'llaydilar [3]. Bu esa sahna ko'rinishlariga milliylik, uslubiy yangilik hamda zamonaviy texnik estetikani olib kiradi [7].

Multimedia LED, videoproeksiya va 3D mapping texnologiyalari folklor naqshlarini zamonaviy talqinda namoyon etish imkonini bermoqda. Bunda kostyum va sahna uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilib, kostyum milliylikning asosiy vizual ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi [5].

Folklor an'analari asosida yaratilgan stsenografiya asarlari nafaqat sahna makonini bezaydi, balki tomoshabinga xalq madaniyati va estetik didini yetkazadi. Naqsh, rang, o'simlik va hayvon tasvirlari, marosim hamda tabiat ramzlari sahna kompozitsiyasida mazmuniy markaz va ritmni shakllantiradi [6].

Zamonaviy stsenografiyada folklor badiiy talqin orqali yangicha ko'rinish kasb etib, sahnaga jonlilik va dinamik ritm olib kiradi. Natijada folklor merosi zamonaviy sahna san'atida o'zining badiiy qadriyatini saqlab, tomoshabinga milliy va estetik zavq bag'ishlaydi [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. To'xtayeva, N. O'zbek xalq amaliy san'ati va dizayn asoslari. – Toshkent, 2016.
3. Qodirova, M. Teatr stsenografiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020.
4. Saidov, S. Folklor estetikasining sahna san'atidagi talqini. – “San'at va madaniyat” jurnali, 2022.
5. Boymurodov, D. Milliy stsenografiyada ramz va rang uyg'unligi. – Toshkent, 2024.
6. Propp, V. Folklorning morfologiyasi. — Moskva: Akademiya nauk, 1986. (rus tilida)
7. Gurevich, P. Iskustvo stsenografii: teoriya i praktika. — Moskva: Iskustvo, 1989.
8. Alieva, N. Qoraqalpoq eposlari sahna talqinida milliy rang va libos bezaklari. — “Teatr va zamon” ilmiy jurnali, №2, 2020.
9. Hojimatov, B. Milliy eposlarning zamonaviy teatr san'atidagi talqini. — Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2018.
10. UNESCO. The Forty Girls Epic of Karakalpakstan: Intangible Cultural Heritage Nomination File. — Paris: UNESCO Publishing, 2014.